

Yurtimizda 14 yoshgacha bo'lgan jami bolalar  
10 million 518 ming 483 nafarni tashkil etadi. Shundan:

O'g'il bolalar:  
5 451 220 nafar

Qiz bolalar:  
5 067 263 nafar

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 39 (16492)  
2022-yil, 18-iyun  
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Sharh**  
2-bet

Endi yoshlar ham o'qib,  
ham maosh oladi

**Yoshlar siyosati**  
4-bet

Qizil, sariq, yashil:  
mahallalarda ahvol qanday?

**Abituriyent sahifasi**  
7-bet

"O'qishga kira olmasam,  
nima bo'ladi?"



Foto: Daniyar Yusupov

Shu kunga qadar yengil atletika bo'yicha mahalla – sektor – tuman – viloyat bosqichida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari respublika bosqichida o'z viloyati shahini himoya qilish uchun 14 ta jamoa – 294 ishtirokchi joriy yilning 15–17-iyun kunlari Xorazm viloyatida jam bo'ldi.

# ENDI YOSHLAR HAM O'QIB, HAM MAOSHI OLADI

11 yillik umumta'lim maktablarini tamomlagan yoshlar oldida ikki yo'l turardi: oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish yoki biror kasbni egallash haqida bosh qotirish. Yanayam to'g'rirog'i, maktab bitiruvchilarining o'rtacha 5 nafardan biri oliy o'quv yurtiga kirsam, bir qismi esa texnikumga hujjat topshiradi.

Ularning maqsadi sanoat, tadbirkorlik, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qo'yingki, barcha sohada salohiyatli kadr bo'lib yetishib chiqish, o'z ixtisosligi bo'yicha mehnat qilish imkonini qo'lga kiritish. Afsuski, bugungi kunda texnikumlarda kasb-hunarga o'rgatish qo'l uchida bo'lib, tizim ham nomigagina ishlayapti. Bu haqda davlatimiz rahbari raisligida aholini kasb-hunarga o'qitish va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida alohida aytib o'tildi.

Respublika miqyosida 330 ta kasb-hunar maktabi, 173 ta kollej va 207 ta texnikumdan iborat tizim

samarali ishlamayotgani tanqid qilindi. Ular mavjud quvvatlarining atigi 40-50 foizidan foydalanmoqda. Energetika, Suv xo'jaligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirliklariga berilgan kollejlarda 20 foiz, Qurilish, Transport vazirliklari kollejlari 10 foiz quvvatda ishlayapti.

Joriy yilda kollej va texnikumlarining 15 mingga yaqin o'quvchilari kontrakt pulini to'lash imkoniyati yo'qligi bois o'qishni davom ettira olmagan. Kollej va texnikumlardagi kasblar ish beruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda ular ishga olgan yoshlarni qaytadan o'qitishga majbur bo'lmoqda. O'quv dasturlari zamon talablaridan ancha orqada, 1 ming 350 nomdagi kasbiy darslik va adabiyotlar yetishmaydi.

Bu muammolar yechimi bilan shug'ullanadigan mutasaddi vazirliklar tizimli ishlamayotgani tanqidga uchrarmoqda. Shu bois yig'ilishda kasb-hunar ta'limini zamon talablariga moslashtirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi.



## KOLLEJLAR O'RNIGA MONOMARKAZLAR TASHKIL ETILADI

Davlatimiz rahbari samarasiz ishlayotgan 70 ta texnikumni tugatishga topshiriq berdi. Yangi tizimga ko'ra, 45 ta kollej Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga o'tkazilib, ularning o'rnida monomarkazlar tashkil etiladi. 62 ta texnikumi bor oliy ta'lim muassasalarining 60 ta yo'nalishi texnikumlarga o'tkaziladi. Rektorlar texnikumlarga o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklar bilan ta'minlaydi hamda texnikumda o'zining kafedralari filiallari, o'quv laboratoriyalarini tashkil etadi.

## DUAL TA'LIM SHAKLI YO'LGA QO'YILADI

Hozir respublika bo'yicha 57 ta professional ta'lim muassasasida Germaniya tajribasi asosida ish joyida o'qitishning dual ta'lim shakli yo'lga qo'yilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida bu o'z natijasini bermoqda. Masalan, pedagogika kolleji o'quvchilari 2 kun nazariy bilimlarni kollejdada olsa, qolgan 4 kun bog'chalarda amaliyot o'taydi. Shu tariqa ham ishlab, ham o'ylay oladi.

Prezidentimiz topshirig'i asosida endilikda dual ta'limni joriy etish uchun kasb-hunar maktablarining bo'sh maydonlarida korxonalarining ishlab chiqarish seklari tashkil etiladi. O'quvchilar ushbu korxonada ishlab, oylik oladi. Korxonadagi ustozlarga asosiy ish haqidan tashqari Bandlikka ko'maklashish jam'armasidan qo'shimcha ustama to'lanadi.

**Shahruza SATTOROVA,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

## IMTIHONSIZ KIRISH BEKOR QILINADI

O'zbekistonda 2023-yildan boshlab texnikumdan oliy ta'lim muassasasiga imtihonsiz kirish tizimi bekor qilinadi. Imtiyozli ta'lim krediti yangi o'quv yilidan texnikum va kollej o'quvchilari uchun ham joriy etiladi. Kollej va texnikumlarda o'qish uchun davlat grantlari va ehtiyojmand oila a'zolari uchun subsidiyalar ko'paytiriladi. Shuningdek, kelgusi yil 1-yanvardan boshlab, ilmiy darajasi bor texnikum o'qituvchilarining ish haqi oliy ta'lim o'qituvchilari maoshiga tenglashtiriladi.

## 555 MING NAFAR YOSH MEHNAT BOZORIGA KIRMOQDA

Yig'ilishda so'nggi 3 yilda "Ishga marhamat" monomarkazlari tashkil qilinib, odamlarni kasbga o'rgatish boshlangani, lekin bu tizim 5-10 foiz ishsizlarni qamrab olishi ta'kidlandi. Bu yil esa respublika bo'yicha 555 ming nafar yoshlar mehnat bozoriga kirib ketadi. Ularni zamonaviy kasblarga o'rgatish, munosib ish bilan ta'min-

lash masalalari barcha darajadagi hokimlar, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, kollej va texnikum direktorlarini ham o'ylantirishi kerakligi ko'rsatib o'tildi. Negaki birgina 2022-yilning o'zidayoq 16 milliard dollarlik 9 mingdan ziyod yirik va o'rta loyihalar ishga tushirilib, ularga 300 ming nafarga yaqin malkali ishchilar kerak bo'ladi.

“

45 TA KOLLEJ BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI TIZIMIGA O'TKAZILIB, ULARNING O'RNIDA MONOMARKAZLAR TASHKIL ETILADI. 62 TA TEXNIKUMI BOR OLIY TA'LIM MUASSASALARINING 60 TA YO'NALISHI TEXNIKUMLARGA O'TKAZILADI.

# “INKLYUZIV SAYIL”

**K**echa Toshkent shahridagi "Navro'z" bog'ida Yoshlar ishlari agentligi va "Mehrlar qo'llari" imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi hamkorligida "O'zingga ishon!" shiori ostida nogiron yoshlar uchun "Inklyuziv sayil" tashkil etildi.

Saylda jami 800 nafar bolalar va yoshlar ishtirok etib, 15 ta madaniy va intellektual tanlovlar, interfaol hududlar (shaxmat, paralimpiya, volonteryalar, taekvondo, surdo kabi), nogiron yoshlarning hunarmand-

chilik namunalari yarmarkasi, jurnalist va bloggerlar bilan uchrashuvlar, "Matonatli ona" nominatsiyasi va konsert dasturlari bo'lib o'tdi.


"Inklyuziv sayil"ning asosiy g'oyasi mamlakatimizda inklyuziv jamiyatni targ'ib qilish, nogiron yoshlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdir. Eng muhimi, nogironlarga inson huquqi va erkinliklaridan tenglik asosida foydalana olish imkonini yaratish tadbirining bosh maqsadidir.

**Oybarchin YO'LBARSOVA,**  
O'zDJTU talabasi



## QABUL JARAYONIDA QANDAY O'ZGARISHLAR BOR?

Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



2022/2023-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarni qabul qilish 20-iyundan boshlanadi. Bu yilgi qabul jarayonlarida ham yangiliklar talaygina. O'qishni ko'chirish faqat ikki holatda mumkin, bir vaqtning o'zida barcha ta'lim shakliga hujjat topshirish imkoniyati bor. Endi magistraturada xorijiy tillarni bilish sertifikatini majburiy, qo'shimcha imtihonlar bo'lmaydi.

Kutilayotgan yana bir nechta o'zgarish va yangiliklarni Prezidentimizning 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda "2022/2023-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi farmoyishlardan bilib olish mumkin.

### XOTIN-QIZLARGA IMTIYOZ

Bu yil oliy ma'lumoti bo'lmagan 2000 nafar xotin-qizlarda oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli kirish imkoni bo'ladi. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun 2022/2023-o'quv yilidan boshlab bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo'shimcha 2 000 ta davlat granti ajratiladi. Bunda yuqoridagi ajratiladigan qabul parametrlarining kamida 50 foizi aniq, tabiiy fanlar, texnika va tibbiyot yo'nalishlari orasida taqsimlanadi.

### BARCHA TA'LIM SHAKLINI TANLASH MUMKIN

Prezidentimiz qaroriga ko'ra, davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida abituriyentlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va Davlat test markazining rasmiy veb-sayti orqali har yili 20-iyundan 20-iyulga qadar (20-iyul kuni ham), chet tilidan kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 10-iyulga qadar (10-iyul kuni ham) amalga oshiriladi.

Endilikda abituriyentlar test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va ketma-ketligi bir xil bo'lgan beshtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini hamda bir vaqtning o'zida kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy ta'lim shakllarini ham tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qarorga asosan, 2022/2023-o'quv yilidan boshlab davlat OTMlarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etiladi. Shuningdek, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab OTMga o'qishga qabul qilishning

davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo'yicha tasdiqlanadi.

### IKKI HOLATDA KO'CHIRISH MUMKIN

Bir davlat oliy ta'lim muassasidan boshqa biriga o'qishni ko'chirish uchun faqat 2 ta vaziyatda ruxsat beriladi: talaba oila qursa va turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi OTMga ko'chmoqchi bo'lsa; davlat xizmatchisi ish yuzasidan boshqa hududga ko'chsa va turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandining o'qishini o'sha hududga ko'chirmoqchi bo'lsa (ishga kirgan vazirlik xati asosida).

Xorijdan o'qishni ko'chirishda esa o'tgan yilgi tartib saqlanib qolgan:

1) talaba mos va turdosh yo'nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda undan o'tish balini to'plash talab etiladi;

2) o'tish balini to'play olmasa, super-kontrakt shartlari asosida o'qishni ko'chirishga ruxsat beriladi;

Xorijdan mos va turdosh bo'lmagan yo'nalishga o'qishni ko'chirishga ruxsat berilmaydi.

### MAGISTRATURA BO'YICHA O'ZGARISHLAR?

Bundan buyon magistraturaga qabul bir yilda ikki marta – avgust va yanvar oylarida tashkil etiladi. Bunda avgust oyidagi qabul – navbatdagi o'quv yili uchun tasdiqlangan davlat granti va to'lov-kontrakt asosidagi kvotalar uchun, yanvar oyidagi qabul – yozda to'lmay qolgan o'rinalar hamda Davlat qabul komissiyasi tasdiqlagan kontrakt asosidagi qo'shimcha kvotalar uchun bo'ladi.

Joriy yildan boshlab magistraturaga qabulda mutaxassislik fanidan imtihon bo'lmaydi. Faqat abituriyentning bakalavriat diplom bali o'rtacha ko'rsatkichi hamda xorijiy til sertifikat bali asosida, ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Boshqa qo'shimcha imtihon o'tkazilmaydi.

### IMTIYOZGA EGA BO'LGANLAR UCHUN ALOHIDA "KVOTA"

Qolaversa, endilikda oliy ta'lim muassasalariga imtihonlarsiz davlat granti asosida o'qishga kirish bo'yicha imtiyozga ega bo'lganlar umumiy qabul parametrlaridan tashqari qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi (ilgari imtiyozga ega ayrim abituriyentlar umumiy kvota doirasida davlat granti asosida o'qishga qabul qilinay va mavjud grant o'rinalarini band qilishar edi). Shuningdek, yurtimizdagi xorijiy va nodavlat OTMlarga davlat granti asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha 1000 ta o'rin ajratib boriladi.

## YOSH TADBIRKOR VA HUNARMANDLAR FORUMI

"Yoshlar oyli" dasturidan o'rin olgan "Yosh tadbirkorlar" va "Yosh hunarmandlar" respublika forumi 16-18-iyun kunlari Farg'ona viloyatida tashkil etildi. Tadbir-da ishtirok etish uchun tashrif buyurgan 150 nafardan ziyod tadbirkor va hunarmandlar Marg'ilon shahrida tantanali kutib olindi.



Yoshlar ishlari agentligi hamda "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi hamkorligida o'tkazilgan tadbir tadbirkor va hunarmandlar o'rtasida tajriba almashish maqsadida uchrashuvlar hamda yirik tadbirkorlik subyektlari, hunarmandchilik obyektlariga biznes sayohatlar uyushtirildi. Ishtirokchilar "Raqqamli texnologiyalar", "Hunarmandlar markazi" hamda "Yoshlar kichik sanoat zonasida yosh tadbirkor va hunarmandlar tayyorlagan milliy mahsulotlar ko'rgazmalari bilan tanishdi.

– Forum bizda katta taassurot qoldirdi, – deydi Samarqand viloyatidan kelgan yosh hunarmand Di-

yora Abdulhayeva. – Tengdoshlarimiz bilan fikr almashdik, bilmaganlarimizni o'rgandik. Farg'ona qadimdan hunarmandlar yurti bo'lib kelgan. Bu yerning hunarmandlari butun dunyoga mashhur. Biz milliy hunarmandchilik mahsulotlarining eng yuqori namunalari, katta tajribaga ega hunarmand ustalarning ishlari bilan tanishdik.

Forumda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar va yoshlar ishtirokida "Muvaffaqiyatga erishish sirlari" mavzusida uchrashuv, Farg'ona viloyatining hunarmandchilik, tadbirkorlik va sanoati rivojlangan hududlariga biznes sayohat, turli trening va ko'ngilochar madaniy dasturlar bo'lib o'tdi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri





**Miraziz  
MIRSULTONOV,**  
Yoshlar ishlari agentligi-  
ning Toshkent viloyati  
boshqarmasi boshlig'i

**P**rezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2021-yil 29-noyabr, PF-27-son) farmoniga muvofiq, hududlarda tinchlik va osoyishtalini ta'minlash bo'yicha choralar belgilangan. Unga ko'ra, kriminogen vaziyat haqidagi ma'lumotlarni mahallalar kesimida tahlil qilishning elektron tizimi yaratilib, hududlar "yashil", "sariq" va "qizil" toifaga ajratildi.

Bu chora-tadbirlar Toshkent viloyatida ham amalga oshirilib, viloyatdagi 1058 ta mahalla fuqarolar yig'inida yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning reyting ko'rsatkichlari (KRI) tahlil qilinib, mahallalarning 382 tasi (37,5 foiz) "qizil", 556 tasi (54,8 foiz) "sariq", 76 tasi (7,45 foiz) "yashil" toifaga ajratilgan edi.

O'tgan uch oy davomida mahallalarda sektor rahbarlari, yoshlar yetakchilari amalga oshirgan ishlar natijasida 1020 ta mahallaning 35 tasi (3,4 foiz) "qizil", 623 tasi (61 foiz) "sariq" va 362 tasi (35,4 foiz) "yashil" mahallalarga qaytadan toifalandi. Tuman va shaharlarning reyting ko'rsatkichlari past baholanishiga hududda sport obyektlari mavjud emasligi, yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik oshganligi, yoshlar bandligi darajasi ta'sir qilgan.

Yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha "qizil" hududlarni "sariq"ga, "sariq" hududlarni "yashil"ga aylantirish va "yashil" hududlar barqarorligini ta'minlash yuzasidan mahallada yoshlar bilan tizimli ishlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda.

# QIZIL, SARIQ, YASHIL:

## MAHALLALARDA AHVOL QANDAY?

### KO'MAK KO'RSATISH REYTINGI

"Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga ko'mak ko'rsatish bo'yicha reyting shakllantirildi. Unga ko'ra:

## 1-SEKTOR 2-SEKTOR 3-SEKTOR 4-SEKTOR

bo'yicha  
Toshkent, Chinoz,  
Bo'stonliq  
tumanlari;

bo'yicha  
Angren, Chirchiq,  
Nurafshon  
shaharlari;

bo'yicha  
Bekobod, Qibray,  
Quyichirchiq  
tumanlari;

bo'yicha Bekobod  
shahri, Olmaliq va Za-  
ngiota tumanlari yuqori  
natija ko'rsatgan.

Misol uchun, Zangiota tumani (1-sektor) "Bog'izor" mahallasi yoshlar yetakchisi Shohsanam Meliqo'ziyeva mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda 46 nafar yoshni doimiy ishga joylagan. Shuningdek, mahalla hududida bolalar sport maydonchasi qurildi.

Olmaliq shahridagi (2-sektor) "Uvaysiy" mahallasi yoshlar yetakchi Doniyor Abduraimov 23 nafar yoshning bandligini ta'minlab, mahal-

la hududida 2 ta yoshlar o'quv markazi ochgan. Markazga 120 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Respublika darajasida o'tkazilgan tadbir va musobaqalarda 6 nafar yosh g'olib bo'lgan.

Nurafshon shahridagi (3-sektor) "Yangibod" mahallasi yoshlar yetakchisi Iroda Xolboyeva tashabbusi bilan mahallada 5 ta sport to'garagi tashkil etilib, 150 nafardan ortiq yoshlar qamrab olinib, kutubxona faoliyati ham yo'lga qo'yildi.

## 1453 TALABANING KONTRAKTI TO'LANDI

2022-yilda "Yoshlar daftari"ga 14 ming 301 nafar yosh kiritilib, 5019 nafariga yordam ko'rsatildi. "Yoshlar daftari" jamg'armasida 24 milliard

378 million so'm mablag' shakllantirilib, 3 ming 159 nafar yoshga 9 milliard 701 million so'mlik yordam ko'rsatildi.

<b>1453</b> nafar yoshga to'lov-kon- trakt pullari;	<b>145 372</b> nafar yosh- ga sog'lig'ini tiklashi (xorijda jar- rohlik amali- yoti) uchun;	<b>612</b> nafar yosh- ga safar- barlik chaqi- ruv rezervi xizmati uchun;	<b>307</b> nafariga subsidiya;	<b>148</b> nafariga haydovchilik guvohnoma- masi olishi uchun mab- lag' ajratil- gan;	<b>567</b> nafariga boshqa turdagi yordamlar ko'rsatilgan.
---	---	---	--------------------------------------	--	---

## RAG'BAT HAM KAM EMAS

Viloyat hokimi faol yetakchi yoshlarni tizimli rag'batlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etish taklifini ilgari surdi. Unga ko'ra: yetakchilarga pul mukofotlari beriladi, ilg'orlar tarixiy shaharlarga sayohatga yuboriladi, ota-onalariga esa faol va shijoatli farzand o'stirgani uchun tashakkurnoma bildiriladi.

Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasiga kitob fondini boyitish uchun 500 million so'm ajratiladi;

• shahar-tumanlardagi sektor rahbarlari faol yoshlarni har cho-

rakda naqd pul yoki boshqa shakllarda rag'batlantirib borish tartibi joriy etiladi;

• Toshkent viloyati mahallalari tarixi bo'yicha yoshlar o'rtasida tanlov o'tkaziladi va jamlangan maqolalar kitob holida nashr etiladi;

• mahallalardagi yoshlar yetakchilariga kamida bitta musiqa asbobini chalish o'rgatiladi;

• yoshlar bilan ishlashda faollik ko'rsatgan sektor rahbari rag'batlantirib boriladi;

• har bir mahallada hududning iqtidorli yoshlari sharafiga "iftixor" burchagi tashkil qilinadi.



## FAOL YETAKCHILAR TAQDIRLANDI

Poytaxtimizdagi 579 ta mahalla yoshlar yetakchilarining 200 nafar eng faol, tashabbuskorlari Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev hamda Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortixojayev bilan uchrashdi.

Ochiq muloqotda yoshlar yetakchilari mahalla yoshlariga foydali takliflar bildirib, yilning kelgusi qismida amalga oshirilajak rejalari muhokama qilindi.

Mahalla faoliyatida barcha yoshlarga o'rnak bo'lgan, o'z hamkasblari o'rtasida obro'-e'tibor qozongan, poytaxt yoshlarining muammolarini yechishda tashabbuskorligi bilan namuna bo'lgan 30 nafar yoshlar yetakchisi Toshkent shahar hokimi tomonidan taqdirlandi. Jumladan, yetakchilarning 10 nafariga Turkiyaga sayohat chiptalari, 10 nafariga skuter, 10 nafariga vaucherlar taqdim etildi.

# TELEVIZOR, TIKUV MASHINASI, 3 KUNLIK SAYOHAT



Bekmurod  
TOSHEV

Respublika ishchi guruhi Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Ko'kdala tumanidagi "Sho'rbozor" mahallasi yoshlar yetakchisi Bekmurod Toshev mahallasida "Yoshlar bog'i"ni barpo etish taklifini bildirgani yodingizdami? Ishchi guruh a'zolari taklifni ma'qullab, mahalla ahli uchun hududning iqlim sharoitida yaxshi hosil beradigan 9000 tup manzarali va meva daraxti ko'chatlarini bepul yetkazishga va'da bergan edi. Va'daga muvofiq, o'z vaqtida yetkazilgan ko'chatlar bugun 500 dan ortiq xonadonda alohida mehr bilan parvarish qilinmoqda.

– Ko'p o'tmay mazkur ko'chatlar o'z hosilini beradi, – deydi mahalla fuqarolaridan biri Burgutali Mamatov. – Yaxshi hosil berishi uchun esa hozirdan nihollarni alohida mehr bilan parvarish qilyapmiz. Aslida hamma tashabbus bizning farovon yashashimiz uchun xizmat qiladi.



## KO'KDALA BRENDI

Ko'kdala tumani yerlari o'zining hosildorligi bilan ajralib turadi. Bu esa mahalladagi ishsiz yoshlarning daromad olishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon bermoqda.

– Mahallamizdagi 26 nafar yoshga 70 sotixdan 50 yil muddatga yer ajratib berdik, – deydi Bekmurod Toshev. – Ajratilgan yerlarda yoshlar o'zlarining tokzorlarini yaratishdi. Hozir tok qatorlari oralab poliz ekinlarini ekib, daro-

mad olishmoqda. Qaysidir yosh bu joylarga pomidor urug'ini qadab, hosilini yig'a boshladi, yana qaysi biri qovun ekib bozorga olib chiqdi. Ayniqsa, tokzorlarga tarvuz ekan yoshlarimiz har sotixidan 1 million so'm miqdorda daromad olib ulgurdi. Yetishtirgan tarvuzlari Ko'kdala brendiga aylandi. Tokzorlardan poliz maydoni sifatida foydalanish jarayoni uzum hosil bergunga qadar davom etadi.



Iqbol BAXT,  
Yoshlar ovozi muxbiri

## MAHALLA KUTUBXONASI

"Sho'rbozor" mahallasida ishsiz yosh a'zolarining bandligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda yoshlar yetakchisi mahalla a'zolari uchun o'zlariga yaqin hududdan ish topishga harakat qilgan. Harakat natijasida 19 nafar qiz "Samo" tikuvchilik korxonasida ishlay boshladi.

Bekmurod mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi"ning har bir yo'nalishida musobaqalar tashkil qilib kelmoqda. Bu haqda mahalla yoshlar yetakchisi shunday dedi:

– Mahallamizdagi yoshlar ko'proq kitob o'qishi uchun "Kitobxonlik" to'garagini yo'lga qo'ydim. To'garak a'zolari bilan birga yil so'ngiga qadar 200 ta kitob o'qishni maqsad qilganmiz, – deydi Bekmurod Toshev. – Biz kitobxonlik orqali barcha sohalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Chunki barcha illatlarning sababi ilmsizlikdir. Shu bilan birga, "Yoshlar kutubxonasi"ni tashkil etganman.

Sport, san'at, adabiyot yo'nalishida musobaqalar va "Zakovat" intellektual o'yini ham muvaffaqiyatli o'tkazib borilmoqda.

Yaqinda o'tkazilgan Yoshlar festivalida ham sport, san'at, adabiyot yo'nalishi, "Zakovat" intellektual o'yinlaridan iborat musobaqalar tashkil qilindi. Festivalda mini futbol

musobaqasi g'olibi bo'lgan jamoa a'zolariga 8 ta televizor, ayollar o'rta-sidagi voleybol musobaqasida g'olib bo'lgan jamoaga 8 ta tikuv mashinasi, san'at va adabiyot yo'nalishi g'oliblari uchun Toshkent viloyatidagi "Bo'stonliq" oromgohiga 3 kunlik sayohatga yo'llanma, "Zakovat" intellektual o'yini g'oliblariga zamonaviy planshetlar topshirildi. Yosh kitobxonlarimiz kitoblar to'plamiga ega bo'lishdi.

Bugun 200 nafardan ortiq sho'rbozorlik yoshlar uchun mnemonika, mental arifmetika, kitobxonlik, futbol, mini futbol, taekvondo kabi to'garaklar ishlab turibdi.

– Menga berilgan vakolat va bildirilgan ishonchni oqlab, mahallamda katta o'zgarishlar qilishga va'da beraman, – deydi qahramonimiz.

Biz Bekmurodning ezgu maqsadi yo'lida bor kuch-g'ayrati, ilm-salohiyatidan foydalanishiga ishonamiz. Uning ishlarida omad tilaymiz.



Prezidentimizning 2021-yil 23-martdagi "Kulolchilikni jadal rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5033-son qaroriga muvofiq, usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatayotgan kulollar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator imtiyozlar belgilangan.

Jumladan, kulollarga shogirdlar tayyorlash, zarur xomashyo sotib olish va shogirdlarni ish haqi bilan ta'minlash uchun subsidiyalari ajratilishi nazarda tutilgan. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

### Imtiyozni taqdim etish tartibi va mud-datlari:

Usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatayotgan kulollar subsidiya olishlari uchun hududlaridagi Aholi bandleligiga ko'maklashish markazi (ABKM)ga ariza bilan murojaat qilishlari kerak.

## 177 IMKONIYAT



## KULLOLLAR UCHUN SUBSIDIYA

Arizada usta-shogird an'analari asosida hunar o'rganish istagidagi yoshlarning ism-familiyasi hamda subsidiya to'lab berilishi lozim bo'lgan hisob raqam, shuningdek, ushbu shaxslarning ishga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi ilova qilinadi.

ABKMning mas'ul xodimi kulolning murojaatini 3 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda ko'rib chiqadi va barcha ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan, tegishli hujjatlar to'liq taqdim etilgan taqdirda ABKM rahbarining murojaat muallifiga subsidiya ajratish to'g'risida buyrug'ini rasmiylashtiradi.

ABKM tomonidan jamg'arma mablag'lari hisobidan ajratiladigan mablag'i murojaatda ko'rsatilgan hisob raqamga o'tkaziladi.



## PINGPONG: CHEMPIONLAR ANIQLANDI

**Stol tennisida o'yinchilar jamoa bo'lib, yakka holda va juftlikda hamda aralash juftlikda musobaqalashadi. O'yin 3 yoki 5 partiya o'ynaladi.**

O'zbekistonda stol tennisida keng ommalashgan. O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalari muntazam o'tkaziladi. Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "5 tashabbus olimpiadasi" tarkibidan o'rin olgan stol tennisida ham pingpongga qiziquvchi yoshlar mahalla-sektor-hudud-viloyat-respublika bosqichida tizimli bahs olib borishdi.

Mazkur sport turi bo'yicha final bahslariga Bo'stonliq tumani mezbonlik qildi. Respublikamizning har bir hududidan saralangan, mahoratli yosh raketkachilar murosasiz bahs olib borishdi.

Bo'stonliqqa tashrif buyurganlar nafaqat sportda o'z kuchlarini sinovdan o'tkazdi, shu bilan birga, tog' bag'ridagi tabiatda madaniy hordiq ham chiqarishdi.

– *Maktab davridan stol tennis bilan shug'ullanaman, – deydi Namangan viloyati vakili Mahliyo Rahmonova. – Bu sport turi*

*inson salomatligi uchun juda foydali. Ko'zning ravshanligini oshiradi, tana harakatda bo'ladi. Asablaringiz dam oladi. Bu yerda ajoyib muhit hukmron. Barcha sharoitlar yaratilgan. Hatto farzandlari bilan kelgan ota-onalar uchun ham bolalar maydonchasi, maxsus xonalar ajratilgan.*

Musobaqa yakunida Toshkent viloyati stol tennis ustalari g'alaba qozondi.

Yurtimizdan Manzura Inoyatova, Saida Burhonxo'jayeva, Svetlana Geta kabi stol tennis bo'yicha jahon chempionlari, Nodira Burhonxo'jayeva, Madina Ayupova singari bir qancha xalqaro turnirlar g'oliblari yetishib chiqqan. Bugun o'z o'yinlari bilan yig'ilganlarni hayratga solgan yosh raketkachilar kelajakda to'rt yillikning eng nufuzli musobaqasi – Olimpiya o'yinlarida ham katta marralarni zabt etishiga ishonamiz!

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Foto: **Abdulaziz ABDURASHIDOV**

## SUZ VA CHINIY

Suzish shunchaki salqinlash, hovurni bosish yo'li emas, balki jismoniy mashg'ulot, chiniqish usulidir.

**Birinchidan**, odam o'zi moslashmagan muhitga – suvga tushadi va harakatlanadi. Bu jarayonda suvning harorati, issiqlik o'tkazuvchanligi, yopishqoqligi, zichligi va boshqalar odam organizmiga ta'sir qiladi. Cho'milish termoregulyator jarayonlarning o'zgarishiga olib keladi. Bu esa organizmni chiniqtiradi.

Suvda issiqlik ajralish hajmining oshishi natijasida organizmda modda almashinuvi faollashadi, suv harorati va suzish tezligiga qarab, energiya sarfi bir necha marta ko'payadi. Suvdagi mashg'ulotlar gavdaning muvozanatni tutish, undagi faol (muskul) va sust (yog') to'qimalarning mo'tadil nisbatda bo'lishiga ko'maklashadi.

**Ikkinchidan**, gavda suvda qattiq tayanchga ega bo'lmaydi. Bunday holatda bo'lishi uning faollikka ehtiyojini oshiradi va harakatni yanada rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi.

**Uchinchidan**, tana suv muhitida nisbiy vaznsizlik holatida bo'ladi.

## YENGIL ATLETIKA: RESPUBLIKA BOSQICHI YAKUNLANDI

**"Sport qirolichasi" nomi bilan mashhur bo'lgan yengil atletika sog'lom turmush tarzining ajralmas bo'lgi hisoblanadi. Shifokorlar, psixologlar ham sog'lom bo'lish, stresdan chiqish uchun ertalabki yugurish, yengil badantarbiya mashqlari bilan muntazam shug'ullanishni maslahat beradi. Yengil atletika haqida Ibn Sinoning "Tib qonunlari" hamda Homerning "Iliada" asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi.**



“

HUDUHLARDAN JAMI 187 487 NAFARDAN ZIYOD  
YOSHLAR ISHTIROK ETISH ISTAGINI BILDIRGAN.

**M**azkur sport turining "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidan o'rin egallashi bejiz emas. Shu kungacha qadar yengil atletika bo'yicha mahalla – sektor – tuman – viloyat bosqichida g'olib bo'lgan mahalla jamoalari respublika bosqichida o'z viloyati sha'nini himoya qilish uchun 14 ta jamoa – 294 ishtirokchi joriy yilning 15-iyun kunlari **Xorazm viloyatida jam bo'ldi.**

Bellashuvda ishtirok etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan hududlarida g'olib bo'lgan yoshlarni kutib olish jarayoniga ham alohida tayyorgarlik ko'rildi. Mehmon ishtirokchilar uchun musobaqa oldidan kechki madaniy dasturlar tashkillashtirildi.

Dastlabki kunda ishtirokchilar

jamoaviy yugurish bo'yicha bel-lashgan bo'lsa, ikkinchi kuni 1000 metrga yugurishdi. Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbir Urganch shahridagi "Olimpiada" stadionida g'olib ishtirokchilarni taqdirlash hamda gala-konsert bilan yakunlandi. Musobaqaning respublika bosqichida 3 yosh toifasidagi barcha g'oliblarga quyidagi sovg'alar topshirildi.

**1-o'ringa** elektron yugurish moslamasi;

**2-o'ringa** veloyotakcha moslamasi;

**3-o'ringa** sport jihazlari.


Bundan tashqari, faol ishtirokchilarga diplom hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

**Mashhura NASRIDINOVA,**

"Yoshlar ovozi" muxbiri

**Laylo TOSHTEMIROVA,**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi



Odami gavdasining og'irligi suvning itaruvchi kuchi ta'sirida neytrallasadi. Gavdaning suvda muvozanatda bo'lishi tayanch harakat apparatini bosimdan ozod qiladi va jismoniy rivojlanish jarayonining to'g'ri kechishiga yordam beradi.

# “O‘QISHGA KIRA OLMASAM, NIMA BO‘LADI?”

**Ko‘pchilik abituriyentlarni shu savol o‘ylantiradi, hatto xavotirga soladi. Xo‘sh, oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kira olmasangiz yoki buni istamasangiz nima bo‘ladi?**

**Quyida sizga asqotadigan tavsiyalarni taqdim etamiz, qaysi javobni tanlasangiz ham, albatta, to‘g‘ri chiqishga ishonchimiz komil, chunki bu sizning qaroringiz!**

**a) Tabaqalashtirilgan to‘lov kontrakti.** Siz hujjat topshirgan oliy ta‘lim muassasasida o‘tish bali chegarasi, aytaylik, 140 ballik ko‘rsatkichda turibdi, siz esa 139 ball to‘plagansiz, nima qilsa bo‘ladi? Atigi bir necha ball yetmagani uchun talabalik ostonasidan ortga qaytish alamlil bo‘ladi. Ammo bu hammasi tugadi degani emas!

Mamlakatimiz ta‘lim tizimiga tabaqalashtirilgan qo‘shimcha

kontrakt, xalq tilida aytganda, “super kontrakt” to‘lab o‘qish imkoniyati yaratildi. Bunda abituriyent 56,7 balidan yuqori natijani qayd etgan bo‘lsa, test natijalari e‘lon qilinganidan so‘ng 1 oy muddat ichida oliy ta‘lim muassasasi rektori nomiga ariza bilan murojaat qiladi va ma‘lum qoidalardagina asosida belgilangan summani to‘lagach, talabalar safiga qabul qilinadi. Keyingi o‘quv yilidan boshlab esa amalda o‘rnatilgan bazaviy kontrakt miqdorida to‘lov qilib o‘qishni davom ettiradi.

**b) Chet el universitetlariga hujjat topshirish.** Bugunga kelib siz bir vaqtning o‘zida ham talabalikka erishishingiz, ham xorijiy davlatga sayohat qilib, xalqaro darajada tan olingan, TOP 100 talikka kirgan bilim yurtida tahsil olishingiz mumkin. Bunda sizdan ishonchli konsalting idoralariga murojaat qilish talab

etiladi, xolos! AQSH, Kanada, Avstraliya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Latviya, Chexiya, Koreya, Yaponiya, Malayziya va Singapurda, balki MDH davlatlaridagi institut va universitetlarda ham o‘zbekistonlik talabalar uchun eshiklar doimo ochiq!

**c) Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish.** Sizda talabalikka emas, zamonaviy biznes sirlarini o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘lsa, atrofida sizga yordam qo‘lini cho‘zuvchi, qo‘llab-quvvatlashga shay tashkilotlar ko‘p ekanini eslatib o‘tmoqchimiz. Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 765-son qaroriga muvofiq, 2022-2024-yillarda maxsus o‘quv kurslarni tamom-

lagan va sertifikatni qo‘lga kiritgan yoshlarga 540 million so‘mgacha kredit beriladi. Qarorning to‘liq matni bilan tanishib chiqqach bir necha oylik maxsus kurslarda tahsil olib, o‘z biznesingizni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish mumkinligini yanada yaxshiroq tushunasiz. Ko‘proq ma‘lumot va yangi loyihalardan xabardor bo‘lish uchun Yoshlar ishlari agentligining hududingizdagi bo‘limiga yoki “O‘zmilliybank” filiallariga murojaat etishingiz kifoya!

**d) Zamonaviy kasblarni o‘rganish va uydan chiqmasdan daromad olish.** Bugungi kunda talab katta va “trend”da turgan kasblar muntazam yangiliklar sari intiluvchi, harakatchan yoshlar uchun yaratilganidek, go‘yo. Bu qaysi kasblar deysizmi? Demak, kuchli uchtalikni taqdim etish vaqti keldi.

## 1-o‘rin

**Grafik dizaynerlik.** Ko‘chalardagi bannerlar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, logolar va mahsulotlar qadog‘idagi dizaynlar aynan shu soha mutaxassislari – grafik dizaynerlar tomonidan tayyorlanadi. Bu sohani mukammal o‘rganish, avvalo, o‘z harakatingizga bog‘liq, 1-1,5 yil davomida o‘z ustida ishlashdan qochmagan yoshlarni, hozir talabgir bo‘lgan kasb egasiga aylanish va bir oyda 10-15 million so‘m daromad olishdek katta imkoniyat kutib turibdi.

## 2-o‘rin

**Dasturlash.** Bu soha kim uchundir murakkab bo‘lsa-da, bel bog‘lab o‘rganganlar uchun eng daromadli kasb desak, adashmaymiz. Sizdan sohani 2-2,5 yil davomida qunt bilan o‘rganish talab etiladi. Shu davr mobaynida siz internet saytlari, androidlar uchun turli ilova va dasturlar, avtomobilardan tortib kir yuvish mashinasini harakatga keltiruvchi programmalarni mustaqil yaratadigan malakali dasturchiga aylanishingiz va oyiga 2 ming AQSH dollarigacha daromad olishingiz mumkin.

## 3-o‘rin

**3D modellash.** Internet tarmog‘i orqali yangi ishlab chiqilgan telefon yoki so‘nggi rumumdagi avtomobillarning taqdimotlariga ko‘p guvoh bo‘lish mumkin. Agar siz ushbu soha mutaxassis bo‘lsangiz, 3-5, uzog‘i 10 daqiqalik video yoki fototaqdimotlar tayyorlab berganingiz uchun videoning har bir sekundiga o‘rtacha 1 million so‘mdan boshlanuvchi haq to‘lanadi. Ishonmay-sizmi?! Internetga kiring va 3D modellashirishning eng so‘nggi narxlarini bilan tanishing!

**Zamonaviy va daromadli kasblarni o‘rganish uchun o‘quv markazlari ko‘p yoki eng yaxshi o‘quv markaz va ustoz vazifasini “YouTube” tarmog‘i bajarishi ham mumkin!**

**e) Hunar o‘rganish.** Hunarmandchilik ayrimlar uchun qo‘shimcha, kim uchundir asosiy daromad manbayidir. Savat to‘qish, zardo‘zlik mahsulotlarini tayyorlash bilan ham kunlik ajratilgan vaqt va diqqatga qarab mablag‘ga ega bo‘lish mumkin. Ustoz-shogird an‘anasi asosida o‘zingizga yaqin hududda biror hunar o‘rganish ilojisiz ish emasligini bilsangiz kerak?!

noma asosida o‘quvchilar qabul qilinadi.

**g) Harbiy xizmat.** Hozirda harbiy xizmatni o‘tab kelgan yoshlarga oliy o‘quv yurtiga kirishda ko‘plab imtiyozlar taqdim etilmoqda. Harbiy xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo‘lgan Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkaklar, har yili mart-aprel oylari davomida chaqiriladi.

usuldan unumli foydalanishingiz mumkin: maktabni tamomlagan bitiruvchi shu yiliyoq OTMga hujjat topshirishga shoshilmaydi. Ko‘pincha buni keyinga rejalashtirishadi va bir yil davomida boshqa davlatlarga sayohat, o‘z ustida ishlash, biror qiziq narsalar o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lishadi. So‘ng o‘zlari istagan oliy ta‘lim muassasasiga hujjat topshiradi va bunda majburiyatni emas, ko‘proq mas‘uliyatni his etishadi.

rishdir. Kirish imtihonlariga qayta tayyorlanish davomida sizga pand berib qo‘yadigan yoki yaxshi tushunmagan mavzularingizni atrof-dagilarga tushuntirish orqali yaxshi eslab qolishingiz va hatto bundan daromad olishingiz ham mumkin.

Qanday deysizmi? Aytaylik, siz ingliz tilini o‘rgangansiz. Uyingizda kichik o‘quv markazi ochib, bilanlaringizni o‘zingiz tashkil qilgan 3-5 o‘quvchidan iborat guruhga o‘rgatish orqali oyiga kamida 200-300 ming so‘mdan foyda olishingiz mumkin. Buni bepul amalga oshirmoqchimisiz? Unday bo‘lsa, yana ham yaxshi, siz va o‘quvchilaringizga omad tilab qolamiz.

**Ziyoda RAHIMBOYEVA,**  
“Yoshlar ovozi” muxbiri

**f) Kasb-hunar kollejlari va texnikumlar.** Avvalo, bu ikki o‘quv muassasasi orasidagi farqni aniqlab olsak. Kollejlarda kasblarning murakkabligidan kelib chiqib o‘qish muddati 6 oydan 2 yilgacha, texnikumlarda esa kamida 2 yil davom etib, har ikkisida ham davlat granti va to‘lov-shart-

**h) Ishlash.** Ko‘pchilik abituriyentlar kirish imtihonlaridan yiqilgan taqdirda o‘zlari uchun mos ish izlashni rejalashtiradi. Ayrimlar uchun bu shunchaki mag‘lubiyatdan chalg‘ish yo‘li bo‘lsa, ayrimlar uchun oilasiga moddiy ko‘maklashish usuli hisoblanadi. Bunda xorijlik yoshlar qo‘llaydigan

**i) Bilimini boshqalar bilan bo‘lishish orqali yanada mustahkamlash** (bepul yoki pullik). Qancha o‘qisa ham eslab qololmaydigan yoki yaxshi tushunmaydiganlarga psixologlar ko‘plab tavsiyalar bergan. Shulardan biri o‘qiganlarini boshqa odamga tushuntirib be-

## FOLBINNING OJIZLIGI

**Jannatoy RO‘ZIBOYEVA,**  
O‘zDJTU talabasi


Bir folbin bozor maydonida o‘tirib, odamlarga fol ochar, shu bilan ularning pulini shilardi. Kunlarning birida uning oldiga bir odam hovliqib yugurib keldi va:

– Hoy folbin, uyingga chop, o‘g‘rilar eshingini buzib, uyingdagi bor mol-davlatingni o‘g‘irlab ketishdi, – dedi.

Vahimaga tushgan folbin bozorni boshiga ko‘tarib “dod” solganicha uyiga qarab yugurdi. Uning yugurib ketayotganini ko‘rgan kishi dedi:

– Ey birodar, uyingda nimalar bo‘layotganini bilmas ekansan-u, boshqalarning hayotini qanday bashorat qilarding! – dedi.

Shahribonu RAHMATOVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



# BASKETBOL: QIZIQUVCHI KO'P, E'TIBOR KAM

**B**asketbol o'yining tarixi 1891-yilning dekabr oyidan boshlangan. AQShning Massachusetts shtati Sprigfild shahridagi ishchilar maktabining anatomiya va fiziologiya o'qituvchisi doktor Jeyms Neysmit talabalarni qishki paytda jismonan chiniqtirish maqsadida zalda to'p bilan o'ynaladigan yangi o'yinni o'ylab topdi.

U qutiga to'p tashlash orqali talabalarning merganligini tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi. Quti topolmagach shaftoli terishga mo'ljallangan savatchani balandligi 3,5 metr balkonga o'rnatib qo'ygan. Savatcha yonidagi narvon ustida farrosh o'tirgan. Uning vazifasi savatchaga tushirilgan to'pni olib, o'yinchilarga uzatib turishdan iborat bo'lgan.

Keyinchalik savatcha to'ri temir aylana bilan almashtirilib, shitlarga o'rnatildi. O'yin texikasining takomillashishi sabab jamoadagi o'yinchilar soni standart holga keltirildi: ya'ni bir vaqtning o'zida 5 kishidan ortiq o'yinchi qatnashishiga ruxsat etilmaydigan bo'ldi.

O'zbekiston sportchilariga basketbol o'yinini birinchi marta Moskvadan Turkiston o'lkasiga xizmat safariga yuborilgan L. Barxash tanishtirgan. U instruktorlardan va harbiy xizmatga chaqiriq yoshiga yetayotgan o'smirlardan iborat basketbol jamoasini tashkil etadi.

1920-yilning sentabr oyida maktab hovlisida birinchi o'yin bo'lib o'tgan. O'shanda halqa o'miga sport maydonchasining har ikki chekkasidagi ustunlarga osib qo'yilgan tagi teshik eski chelaklardan foydalanilgan edi.

Tashkil etilgan dastlabki namunaviy o'yinlar mahalliy yoshlarga va jismoniy tarbiya instruktorlariga ma'qul bo'lib, ularda katta taassurot qoldirdi. Toshkentda o'tkazilgan o'sha birinchi basketbol o'yini qatnashchisi M.Mogilevskiyning hikoya qilishicha, yigitlar kunlik kiyimlarida o'yinga tushishgan va ko'plari yangi oyoq bir-biriga to'p o'tish va qo'lga tushgan to'pni osib qo'yilgan eski chelakka tashlashdan iborat edi. O'yinning barcha qoidalariga rioya qilinmasa-da, yangi o'yin odamlarda kuchli hayajon uyg'otgan, o'smirlar va yoshlarning diqqatini o'ziga tortgan.

Keyinchalik bu sport turi bo'yicha O'zbekiston ayollar va erkaklar jamoalari tuzildi, milliy toifadagi hakamlar tayyorlandi. Har yili Respublika kubogi va birinchiligi musobaqalari o'tkazilmoqda, g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoa o'yinchilariga "Sport ustasi" unvoni berib kelinmoqda.

“

BASKETBOLNI KENG  
TARG'IB QILISH UCHUN BIZDA  
TELEKO'RSATUVLAR YOKI  
BASKETBOL BILAN BOG'LIQ  
YAXSHI REKLAMALAR YO'Q,  
MUSOBAQALAR HAM  
TO'G'RIDAN-TO'G'RI  
TRANSLYATSIYA  
QILINMAYDI.

da bu sport turi mashhur emasligi sabab basketbolni tark etadi. Shu bois basketbolni yurtimizda ommalashtirish, barcha hududlarda o'yin maydonchalari qurish, bahslarni televizorda ko'rsatish, jamoalarga homiy topish zarur. Shunda o'zbek o'yinchilari yaxshi natija ko'rsatishadi. Basketbolni keng targ'ib qilish uchun bizda



**Shunday o'yinchilardan biri Muhammadjon Po'latov hisoblanadi.**

U basketbol bilan 2010-yildan buyon shug'ullanadi, 2012-2013-yillarda 1996-1997-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempioni, "MHSK U-18" kubogi g'olibi, "Barkamol avlod" sport o'yinlari sovrindori bo'lgan. 2016-yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga o'qishga kirib, milliy terma jamoa bosh murabbiyi Botir Miradilov qo'l ostida "MHSK" tayanch jamoasida o'ynadi. Shu yillarda Oliy liga chempioni va O'zbekiston kubogi sohibi bo'ldi. Hozir u milliy terma jamoa a'zosi va Navoiy shahrida murabbiylik faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

Sportchimiz bilan basketbolga bugungi kun yoshlarining munosabati, bu sport turini yanada ommalashtirish usullari va muammolari haqida suhbatlashganimizda shunday dedi: "Yurtimiz yoshlari orasida basketbolga qiziqish yuqori, ammo ko'pchilik balogat yoshi-

teleko'rsatuvlar yoki basketbol bilan bog'liq yaxshi reklamalar yo'q, musobaqalar ham to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya qilinmaydi. Shu sabab odamlar O'zbekistonda basketbol rivojlanmagan deb o'ylashadi. Ularga mamlakatimizda basketbol bo'yicha yaxshi turnirlar borligini ko'rsatishimiz, yosh yigit-qizlarning basketbol bilan shug'ullanishi uchun ommaviy tadbirlarni o'tkazishimiz kerak. Ko'proq mahorat darslarini tashkil qilsak, ko'chalarda basketbol maydonchalarini qursak va yoshlar qalbida bu sport turiga nisbatan mehr uyg'otsak, ular xalqaro turnirlarda g'oliblikni qo'lga kiritishlari aniq".

Har bir sport turi, shu jumladan, basketbolga ham e'tiborni kuchaytirish, yoshlar orasidan jahon chempionlarining yetishib chiqishiga ko'maklashishimiz zarur. Zero, mavjud muammolarni hal etishga, sportchilarni qo'llab-quvvatlashga qodir yurtda yashayapmiz.



## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma to'loq. Korxonaga manzil: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-655, Adadi - 10584. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6